

# **Surxondaryo viloyati hokimiga yangi o'rribbosar tayinlandi**



Amirov Alisher Xurramovich Surxondaryo viloyati hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rribbosari lavozimiga tayinlandi.

U 1977 yil Boysun tumanida tug'ilgan. 2001 yilda Toshkent avtomobil yo'llari institutini, 2014 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasini tamomlagan. Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi – yer usti transporti tizimlari muhandisi.

A.Amirov mehnat faoliyati davomida O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi Toshkent viloyati bo'limi sho''ba mudiri, "O'zavtoyo'l" davlat-aktsiyadorlik kompaniyasida boshqarma boshlig'i, boshqaruv raisining o'rribbosari, Surxondaryo viloyati hokimining o'rribbosari, Sherobod tumani hokimi lavozimlarida mehnat qilgan.

Mazkur lavozimga tayinlangunga qadar 2021 yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi avtomobil yo'llari qo'mitasi mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi boshqarmasi boshlig'i lavozimida faoliyat yuritayotgan edi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)